

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TO‘RABOYEVA GULHAYO NORMO‘MIN QIZI

**INTRODUKSIYA SHAROITLARIDA *INDIGOFERA TINCTORIA* L. NING
BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA SAMARALI
FOYDALANISH YO‘LLARI**

03.00.10 – Ekologiya

03.00.05 – Botanika

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

To‘raboyeva Gulhayo Normo‘min qizi

Introduksiya sharoitlarida *Indigofera tinctoria* L. ning bioekologik xususiyatlari va samarali foydalanish yo‘llari.....3

Турабаева Гулхаё Нормумин кизи

Биоэкологические свойства *Indigofera tinctoria* L. в условиях интродукции и пути эффективного использования.....22

Turabayeva Gulkhayo Normumin kizi

Bioecological properties of *Indigofera tinctoria* L. under conditions of introduction and ways of effective use.....42

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TO‘RABOYEVA GULHAYO NORMO‘MIN QIZI

**INTRODUKSIYA SHAROITLARIDA *INDIGOFERA TINCTORIA* L. NING
BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA SAMARALI
FOYDALANISH YO‘LLARI**

03.00.10 – Ekologiya

03.00.05 – Botanika

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/B310 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Matkarimova Anorjon Abdikarimovna**
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Raximova Tashxanim**
biologiya fanlari doktori, professor

Yuldashyeva Saxiba Shamurzayevna
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent

Yerakchi tashkilot: **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.B.01.15 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «28» oktyabr kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.: +99871-246-15-44).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (158-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy. Tel.: 99871-246-67-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «03» oktyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «03» oktyabrdagi 33-raqamli reyestr bayonnomasi).



T.U.Raximova
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

R.X.Allaberdiev
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy kengash kotibi,
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Z.A.Jabbarov
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda iqtisodiy jihatdan ahamiyati yuqori bo'lgan o'simliklarga qiziqish yildan yilga tabora ortib bormoqda. Bu esa, dorivor, oziq-ovqat, aromatik va bo'yoq ekinlari turlar sonini kengaytirish va ular asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni taqozo etadi. Shunga ko'ra, istiqbolli o'simliklarning keng assortimentini tanlab olish, ularni xom-ashyo bilan ta'minlash, bioekologik xususiyatlarini va turli tuproq-iqlim sharoitlariga mosligini o'rganish, yetishtirish va ko'paytirishning samarali usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda dorivor, oziq-ovqat, aromatik va bo'yoq xususiyatlariga ega istiqbolli o'simliklarni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish, ko'paytirish usullarini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, ekologik hududlar, iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, qimmatli o'simlik turlarini tadqiq qilish va ulardan oqilona foydalanish, bo'yoqbop indegofera o'simligidan tabiiy bo'yoq olish texnologiyasi, *Indigofera tinctoria* L. o'simligining bioekologik xususiyatlari va etishtirish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mustaqillikka erishganidan so'ng muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan o'simliklarni tadqiq etish, ularni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalash, turli hududlarda yetishtirish va ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida¹ «... cho'l hududlarida o'simliklarni ko'paytirish, sug'oriladigan erlarni eroziyadan va meliorasiya ob'ektlarini qum ko'chishidan saqlash, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish» kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda jumladan, eng istiqbolli bo'yoq ekinlari orasida hozirda dunyoning o'ttizga yaqin davlatida yetishtirilayotgan *Indigofera tinctoria* L. alohida ajralib turadi va bu o'simlikning turli xududlarda bioekologik xususiyatlarini o'rganish, sifatli xom-ashyosini yetishtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentyabrdagi 409 son «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida» gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853 son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasini 2020–2030 yillarga tasdiqlash to'g'risida» gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 yanvardagi PF-60 son «Yangi O'zbekistonni 2022–2026 yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida» gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V-ustuvor yo'nalishi – “Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. *Indigofera tinctoria* L. o'simligining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni.

o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar xorijiy olimlar tomonidan: A. Hasan, M. Farman va I. Ahmed (1993), D.S. Balan, R.T. Monteiro (2001), Elmar Steingruber (2004), B. Singh, B.K. Chandan, N. Sharma, V. Bhardwaj, N.K. Satti, V.N. Gupta va O.P. Suri (2006), A. Paitoon, S. Supachok (2007), Ashis Kumar Samanta, Priti Agarwal (2009), Saravana A. Kumar, R. Gandhimathi, Mohana Lakshmi, S. Rahul Nair, Ashok Kumar (2009), G. Asuntha, Y. Prasannaraju, K. Prasad (2010), S.M. Verma, K.B. Suresh, A. Verma (2010), Annie Felicia, M. Muthulingam, Sharmin Jahan (2013), A. Amrita, Chowdhur va R. Archana Juvekar (2014), Y.R. Kristiawan (2017), Chandrasekaran Swaminathan (2018), B. Tamtama, Y.R. Kristiawan (2016), F. Robert S. Warjeet (1853), S.D. Laitonjam va A. Wangkheir (2011), B. Singh, B.K. Chandan, N. Sharma, V. Bhardwaj, N.K. Satti (2006), Djeffri S. Splitstozer, Tom D. Dillexey (2016), Finch-Savage W.E., Bassel G.W. (2016) kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida *Indigofera tinctoria* L. o'simligining o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar B.K. Shishkin (1945), F.S. Pilipenko (1958), D.A. Muravyova (1983), V.Sh. Guliyev, D.D. Mirzaliev, G.S. Gumbatov (1993), G.E. Krichevsky (2001), E.A. Korolyuk (2003), A.D. Khayrutdinova (2004), N.L. Kolyasnikova (2006), A.A. Lapin (2010), N.A. Shagina, F.Sh. Azimova (2011) tomonidan o'rganilgan.

Respublikamiz miqyosida ushbu bo'yoqbop indegofera o'simligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. A. Ergashev va G'. Yoqubovlar tomonidan Xorazm viloyatining degradatsiyaga uchragan tuproqlarida *Indigofera tinctoria* L. o'simligini etishtirishning agroekologik va biotexnologik xususiyatlari o'rganilgan (2012). F.X. Djumaev tomonidan Buxoro sharoitida *Indigofera tinctoria* L.ni etishtirish orqali tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan (2021). A. Ergashev, G'. Yoqubov va A. Raximovlar tomonidan indigoferani etishtirish, tabiiy bo'yoq biotexnologiyasi hamda yemirilgan yerlarni yaxshilash bo'yicha fermerlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma nashr qilingan (2012). X.Sh. Urinova tomonidan Navoiy viloyati tuproq-iqlim sharoitida *Indigofera tinctoria* L. o'simligining bioekologik xususiyatlari va qo'llash istiqbollari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. U. Abdurahmonova, Sh.J. Muhammadiev (2021) tomonidan *Indigofera tinctoria* L. o'simligi ildizining kimyoviy tarkibini o'rganilgan. X.G'.Ayasov (2024) Toshkent vohasi sharoitida bo'yoqli bosma (*Indigofera tinctoria* L.) va bog' balzami (*Impatiens balsamina* L.) ning bioekologik xususiyatlari va etishtirish texnologiyasini o'rgangan.

Biroq, *Indigofera tinctoria* L.ning respublikamizda turli ekologik sharoitlarda yetishtirilishi va bioekologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari etarlicha olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti Botanika va genetika kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Istiqbolli noa'naviy o'simliklar introduksiyasi va fiziologik-biokimyoviy xususiyatlari" (2020-2025 yy) mavzusidagi ilmiy tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi introduksiya sharoitida *Indigofera tinctoria* L. ning bioekologik xususiyatlarini va fitokimyoviy tarkibini aniqlash hamda ko'paytirish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Indigofera tinctoria L. urug'larining laboratoriya va dala sharoitida unuvchanligida haroratning ta'sirini aniqlash;

o'simlik ontogenezining davr va bosqichlarini qayd etish;

mavsumiy rivojlanish maromida ekologik omillarning ta'sirini aniqlash;

kunlik va mavsumiy gullash dinamikasini va urug' mahsuldorligini abiotik omillarga bog'liq holda kuzatish;

o'simlik tarkibidagi ayrim biologik faol moddalarning tarkibini aniqlash va bo'yoq pigmentini ajratib olish;

Indigofera tinctoria L. ni ko'paytirish va etishtirish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Burchoqdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub introdusent o'simlik *Indigofera tinctoria* L. olingan.

Tadqiqotning predmetini Introduksiya sharoitida *Indigofera tinctoria* L. ning urug' unuvchanligi, ontogenezi, mavsumiy rivojlanish maromi, gullash dinamikasi, fitokimyoviy tarkibi va etishtirish usullari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada biomorfologik, fenologik, fitokimyoviy, qiyosiy tahliliy, statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Indigofera tinctoria L. urug'ining unib chiqishining xususiyatlari aniqlangan, uning ontogenezining asosiy bosqichlari va fazalari belgilangan, atrof-muhitning turli omillari ta'siriga bog'liq holda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi jarayonlari batafsil tavsiflangan;

bu o'simlikning gullashining kunlik va mavsumiy maromlari o'rnatilgan, g'unchalar ochilishining xarakterli davrlarini, gullash fazasining davomiyligini va uning jadalligini harorat, yoritilganlik va boshqa tabiiy-iqlim sharoitlarining o'zgarishiga bog'liqligi isbotlangan;

Indigofera tinctoria L.ning potentsial va haqiqiy urug'lik mahsuldorligi ko'rsatkichlari aniqlangan, ularni tabiiy tuproq-iqlim muhiti sharoitida hamda turli xil ekologik omillar ta'sirida amalda o'zgarishi ochib berilgan;

Indigofera tinctoria L. o'simligida ilk bor biologik faol birikmalar mavjudligi aniqlangan va tabiiy indigo pigmenti olingan;

o'simlikning yer usti massasidan efir moylari olinib, ularning komponent tarkibi aniqlangan;

Indigofera tinctoria L.ni yetishtirish agrotexnologiyasining tadbirlari va iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan. O'simlikni introduksiyasi natijalari baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

introduksiya sharoitida yetishtiriladigan *Indigofera tinctoria* L.ning vegetativ organlarining fitokimyoviy tarkibini tahlil qilish asosida bu o'simlikdan biologik faol birikmalar va tabiiy bo'yoqlar olishda qimmatli xomashyo sifatida foydalanishning imkoniyatlari asoslangan;

Indigofera tinctoria L. urugʻlari va yer ustki qismlaridan efir moylari va geksan ekstraktining asosiy komponentlari aniqlangan;

Indigofera tinctoria L.ni yetishtirishning texnologik xaritasi ishlab chiqilgan. Oʻsimlikni urugʻidan yetishtirish va sifatli xom-ashyo olish boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarning klassik va zamonaviy usullardan foydalanish orqali amalga oshirilganligi, ilmiy yondashuvlar asosida olingan maʼlumotlar va natijalarning oʻzaro mosligi, olingan natijalarning Oliy attestatsiya komissiyasi roʻyxatiga kirgan etakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi hamda nufuzli xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ularning joriy etilgan sharoitlarda *Indigofera tinctoria* L.ni oʻsishi va rivojlanish xususiyatlarini: ontogenez davrlari va bosqichlari aniqlangan, kunlik va mavsumiy gullash maromlari oʻrganilib, urugʻning potentsial va haqiqiy mahsuldorlik koʻrsatkichlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning asoslanishi va dorivor oʻsimlik sifatida xom-ashyosidan foydalanish, barg biomassasidan boʻyoq olish, introduksiya sharoitida oʻsimlikni yetishtirish boʻyicha texnologik xarita ishlab chiqilganligi, shuningdek uni turli tuproq-iqlim sharoitlarida tavsiyalarni oʻz ichiga olganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Introduksiya sharoitida *Indigofera tinctoria* L.ning bioekologik xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha olingan natijalar asosida:

Indigofera tinctoria L. oʻsimligini Qashqadaryo viloyati turli tuproq iqlim sharoitlarida ekish yuzadidan ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi amaliyotiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi 2025 yil 19 apreldagi 03-03/1-03/3-9202-son maʼlumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyati “Galabuta marjonlari” fermer xoʻjaligiga 1 gektar maydonda 3-3.5 t. xom-ashyo olish va ekish uchun 400-600 kg urugʻlik mahsulot yetishtirish imkonini bergan.

Introduksiya sharoitlarida *Indigofera* L. oʻsimligining bioekologik xususiyatlari va samarali foydalanish boʻyicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi faoliyatining amaliyotiga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining 2025 yil 19 apreldagi 03-03/1-03/3-9202-son maʼlumotnomasi). Natijada Yakkabogʻ ixtisoslashgan davlat oʻrmon xoʻjalik yer maydonlarida *Indigofera tinctoria* L. turining onalik plantatsiyalari tashkil etilib, ushbu oʻsimlik turining urugʻini koʻpaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 maqola, ulardan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Indigofera L. turkum turlarining o'rganilish tarixi***" deb nomlangan birinchi bobning birinchi bo'limida *Indigofera L. turkum turlari* bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida adabiyotlar tahlili keltirilgan. Ushbu bobning ikkinchi bo'limida *Indigofera tinctoria L.* ning botanik tavsifi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Introduksiya sharoitlarida *Indigofera tinctoria L.* ning bioekologik xususiyatlari va samarali foydalanish yo'llarini o'rganish uslublari va materiali**" deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi bo'limida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan O'zbekiston Milliy universiteti Botanika bog'ining geografik jihatdan joylashuvi, tuprog'i, iqlim sharoitlari, yog'in miqdori, havoning harorat ko'rsatkichlari O'zgidromet Toshkent meteostantsiyasi ma'lumotlari va boshqa adabiyot manbalari asosida tavsiflangan. Shu bobning ikkinchi bo'limida tadqiqot ob'ektlari va usullari batafsil keltirilgan. Dissertatsiya ishida dala tadqiqotlari, fenologik monitoring, biokimyoviy va laboratoriya tahlillari, statistik taqqoslash va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Dissertatsiya ishining "***Indigofera tinctoria L. ning bioekologik xususiyatlari***" deb nomlangan uchinchi bobining birinchi bo'limida *Indigofera tinctoria L.* ning urug' unuvchanligi o'rganilgan. *Indigofera tinctoria* urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligini aniqlash uchun 100 tadan urug' saralanib, Petri idishchasida filtr qog'ozi ustida etarlicha namlikda o'stirildi. Buning uchun Petri idishchalariga 16 martda 100 tadan urug' ekildi. Tajriba variantlari sifatida quyidagi haroratlar tanlab olindi: + 15°C, + 20°C, + 25°C, + 30°C, + 35°C. Tajribada eng optimal harorat +25°C bo'lib, bunda urug'larning unishi 93% ni tashkil etdi. Tajriba natijasida haroratning +15°C ga tushishi yoki +30°C ga ko'tarilishi urug'larning unuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, unuvchanlik + 39-40% ni tashkil etdi (1-jadval).

***Indigofera tinctoria* urug‘larining laboratoriya sharoitida unuvchanligiga
haroratning ta‘siri (13.03.2019 yil)
(n=100)**

Harorat °C	Urug‘larning unishi								%
	18/03	19/03	20/03	21/03	22/03	23/03	24/03	25/03	
+15	12	2	15	7	3	1	-	-	40
+20	25	20	4	7	1	1	1	1	60
+25	40	26	20	6		1	-	-	93
+30	7	27	4	1	-	-	-	-	39
+35	1	8	6	-	-	-	-	-	15

Ma'lumki, urug‘larning sifati va ularning unuvchanligi o‘simlikning biologik xususiyatlariga, tuproq va iqlim sharoitlariga, oziqlantirishga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, *Indigofera tinctoria* urug‘larining unuvchanligi, o‘shish energiyasi va yosh o‘simtalarning rivojlanish quvvati urug‘lar massasiga bog‘liq.

Indigofera tinctoria urug‘larining unuvchanligi va o‘shish energiyasi 1000 ta urug‘ning massasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. 1000 ta urug‘ning massasi 10,2 grammga teng bo‘lgan urug‘larning unuvchanligi $80 \pm 3,3$ % va o‘shish energiyasi $56 \pm 2,3$ % ni, 12,1 grammga teng bo‘lgan urug‘larda unuvchanlik $96 \pm 4,5$ % va o‘shish energiyasi $86 \pm 3,5$ % ni tashkil etdi. Tajribalarda urug‘larning unuvchanligi va o‘shish energiyasi urug‘lar massasining ortishi bilan ko‘payib borishi aniqlandi (2-jadval).

***Indigofera tinctoria* L. urug‘larining unuvchanligi va o‘shish energiyasiga
urug‘lar massasining ta‘siri**

Urug‘ soni, dona	1000 ta urug‘ massasi	Unuvchanligi, %	O‘shish energiyasi %
100	10,2	$80 \pm 3,3$	$56 \pm 2,23$
100	10,7	$84 \pm 3,5$	$60 \pm 2,5$
100	12,1	$96 \pm 4,5$	$86 \pm 3,5$
100	12,0	$95 \pm 4,3$	$86 \pm 3,4$
100	10,8	$88 \pm 3,7$	$71 \pm 2,9$
100	11,3	$92 \pm 4,3$	$80 \pm 2,9$

Urug‘larining dala sharoitida unuvchanligi laboratoriya sharoitiga qaraganda past bo‘ladi. Urug‘larning dala sharoitida unuvchanligi ularning sifatiga, agrotexnik sharoitiga, ekologik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Havo harorati oktyabr oyida 10-15 °C, nisbiy namlik 56-59 % ni tashkil etdi. Bahorda havo harorati +21-23 °C, havoning nisbiy namligi 67% bo‘lganda 15 martda ekilgan urug‘larning unuvchanligi 200 ta urug‘dan 180 ta unib, unuvchanlik 90 % ni tashkil etdi.

Indigofera tinctoria urug‘larining dala sharoitida unuvchanligini o‘rganishda turli variantlar belgilandi: ikki xil muddatda ekish (kuzda va bahorda) va uch xil ekish chuqurligida olib borildi (05-1; 1-2; 2-3 sm.). Tajriba natijalaridan ko‘rinib

turibdiki, urug‘larni bahorda ekish kuzda ekishga nisbatan yaxshi samara berib, ekish chuqurligi 2-3 sm. hisoblanadi (har ikkala ekish muddatida ham), (3-jadval).

3-jadval

***Indigofera tinctoria* L. urug‘larining dala sharoitida unuvchanlik ko‘rsatkichlari**

Ekish muddati	Ekish chuqurligi (sm)	Ekilgan urug‘lar soni (dona)	Ungan urug‘lar soni (dona)	Unuvchanlik %
10 oktyabr	0,5-1	200	0	0
	1-2	200	30	15
	2-3	200	120	60
15 aprel	0,5-1	200	10	5
	1-2	200	110	55
	2-3	200	180	90

Shu bobning ikkinchi bo‘limida *Indigofera tinctoria* ning ontogenezida 3 ta davr ajratildi: **Latent** (*se* – urug‘lar). **Virginil** (*r* – maysa, *j* – yuvenil, *im* – immatur, *v* – virginil). **Generativ (g) davri**.

Latent davri (*se*) – bu davrda o‘simlik tinim holatida, ya’ni urug‘ ko‘rinishida bo‘ladi. *Indigofera tinctoria* urug‘larining rangi yashil, dukkagi esa qizil rangdan qo‘ng‘ir rangga o‘tadi. Mevasi dukkak bo‘lib, quruq qo‘ng‘ir rangda, har bir dukkakning uzunligi 0,5-1,5 sm, eni 0,3-0,5 sm ni tashkil qiladi.

Har bir dukkak ichida o‘rtacha 2-4 dona urug‘ hosil bo‘lib, bitta to‘pgul o‘qida 6 tadan 72 donagacha urug‘ etiladi. 1000 dona urug‘ining vazni 10-12 g ni tashkil qiladi. Urug‘lar unuvchanligini 4-5 yilgacha yoqotmaydi.

Virginil davri. *Indigofera tinctoria* L. hayotida virginil davr 4 ta bosqichga bo‘linadi: maysa, yuvenil, immatur va voyaga etgan virginil bosqichlari.

Maysa bosqichi (*r*). *Indigofera tinctoria* L. urug‘lari dala sharoitida aprel oyining 2 va 3 dekadasida ekildi. 25-30 aprelda urug‘lar unib chiqa boshladi va unish jarayoni may oyining birinchi dekadasigacha davom etdi Bunda havo harorati 23 + 25 °C, havoning nisbiy namligi 50 - 60 % ni tashkil etdi. Unib chiqqan urug‘palla barglarning shakli yumaloq, yashil rangda, maysasining bo‘yi 0,5-2 sm.ga teng bo‘ldi. O‘simlikning ildizi dastlabki kunlarda sekin o‘sib, ildiz uzunligi 3-4 sm. chuqurlashdi. Bu bosqich o‘simlik hayotida juda qisqa bo‘lib, 11-13 kunni tashkil etdi.

Yuvenil bosqichda (*j*) bu yosh holati may oyining oxirlarida *Indigofera tinctoria* ning asosiy poyasi va ildizlarining rivojlanishi kuzatiladi. O‘simlik bo‘yi 2-4 sm. bo‘lib, urug‘palla barglari 2-3 x 0,5-0,7 sm.ga kattalashdi va shu vaqtdan boshlab birinchi va ikkinchi chin barglar shakllana boshlaydi. Bu paytda havo harorati 26 +29 °C, havoning nisbiy namligi 40 -50 % ni tashkil etdi. Barglari poyada navbatma-navbat joylashadi, shakli yarim ovalsimon oddiy va murakkab barglardan iborat. Oddiy barglar o‘simlikning o‘sish davri boshlarida va o‘rtalarida hosil bo‘ladi. O‘sish davrining oxiriga kelib to‘kilib ketadi. Murakkab barglari esa toq patsimon bo‘lib, poyasining pastki qismidagilari 3-5 ta bargchadan, o‘rtasidagilari 5-7-9 bargchadan iborat. Yuvenil bosqichining davomiyligi 15-20 kun davom etdi (1-rasm).



a

b

1-rasm. *Indigofera tinctoria* ning maysa (a) (aprel) va yuvenil (b) (may) bosqichi (2020 yil)

Immatur bosqichi (*im*). Bu bosqichda ko'pgina o'simliklar singari indigofera er ustki va er ostki organlarining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Immatur bosqichda asosan iyun oyining boshlarida o'simtalar to'liq shakllanib, deyarli etuk o'simlikka o'tadi. Barglari yanada kattalashadi. O'simlik chinbarg chiqargandan keyin, oddiy va murakkab barg shakllanishi bilan o'simlikda yosh ildizlar va yon novdalar hosil bo'lishi kuzatiladi. Bu bosqichda o'simlikning ildiz uzunligi 10-20 sm.ga etadi.

Bu bosqichda o'simliklarda 2-tartibdagi 4-6 ta yon novdalar paydo bo'lib, ularning uzunligi 5-15 sm.ni tashkil qiladi. O'simlikning har bir yon novdalarida 4-5 tagacha bargchalari shakllanadi. Barglari poyada navbatma-navbat joylashib, shakli yarim ovalsimon oddiy va murakkab barglardan iborat Ildizi o'q ildiz bo'lib, rangi och qo'ng'ir bo'lib, 25-30 sm. chuqurlashadi. Immatur bosqichi o'simlik hayotida 20-25 kun davom etadi. (2 - rasm).



2-rasm. Immatur bosqichdagi o'simlikning umumiy ko'rinishi va ildiz tuzilishi

Voyaga etgan virginil bosqichi (v). Iyun oyining boshlarida havo harorati 33 + 34 °C, havoning nisbiy namligi 36 -40 % bo'lganda barglari to'liq shakllanib, asosiy poyasining uzunligi 70-90 sm. gacha etadi. Murakkab barglarining soni 7-12 tani tashkil etadi. Murakkab barglar patsimon shaklda, barg plastinkalari tuxumsimon yoki ovalsimon yashil rangda bo'ladi. Voyaga etgan o'simlikning yon novdalari asosan pastki qismidan hosil bo'lib, 5-10 tani tashkil etadi. Bu vaqtga kelib o'simlik jadal o'sadi. O'simlikning yon novdalaridan kichik novdalar ham rivojlanib, kichik novdalarda ham barglar hosil bo'ladi. Kichik novdalardagi barglar asosiy va yon novdalardagi barglarga qaraganda ikki baravar kichikroq bo'ladi. Voyaga etgan virginil bosqichi 15-20 kunni tashkil qiladi. Demak o'simlikning umumiy verginil davri ob- havo sharoitiga bog'liq holda 61 - 78 kunni tashkil etishi qayd etildi (3 rasm).

Generativ davri. O'simlik issiq sevar hisoblanib, generativ organlarining hosil bo'lishi may, iyn oylarida g'unchalash davom etib, iyul oyining o'rtalarida havo harorati 36 + 40 °C, havoning nisbiy namligi 43 - 47 % bo'lganda gullashi kuzatildi.

Gulkosachasi qo'ng'iroqsimon, ikki jinsli. Gullari qizil-sarg'ich rangda, qiyshiq gul tuzilishiga (zigomorf) ega. Gullari barg qo'ltig'ida to'pgul hosil qilib joylashadi. To'pgullari kallakcha shaklida bo'lib, gullari akropetal tarzda ochiladi (4-rasm).

Bu jarayon iyul oyining oxirlari va avgust oyining boshlarigacha davom etib, 30-40 kunni tashkil etdi. Avgust oyining boshlarida meva hosil qila boshladi. Mevasi dukkak bo'lib, quruq qo'ng'ir rangda bo'lib, shu oyning oxirlarida pishib etiladi. Generativ davrining davomiyligi 65 - 80 kun davom qildi. O'simlikning umumiy vegetasiya davomiyligi 155 -190 kunni tashkil qildi (5 - jadval) .



3 –rasm. Indigofera tinctoria ning voyaga etgan virginil bosqichi



4-rasm. *Indigofera tinctoria* ning generativ davri (2021 yil iyl)

5-jadval

***Indigofera tinctoria* ning ontogenez davri va bosqichlarining davomiyligi**

Davr va bosqichlar	Ontogenez davrlari	2019-2022 yil
I	Latent davri	
II	Virginil davri	
maysa bosqichi	11-13	61-78
yuviril bosqichi	15-20	
immatur bosqichi	20-25	
voyaga etgan virginil bosqichi	15-20	
III	Generativ davri	65-80
Umumiy vegetatsiya davomiyligi		155-190

3 bobning 3 bo'limi o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga ekologik omillarning ta'siriga bag'ishlangan. O'simlikning vegetatsiyasi aprel oyidan boshlanadi, may oyiga kelganda g'unchalash boshlanib, iyul oyining boshlarigacha davom etadi. Shu oy o'rtalarida havo harorati 35 + 39 °C, havoning nisbiy namligi 30 - 40 % bo'lganda gullash jarayoni kuzatildi. Avgust oyida havo harorati 32 + 33 °C, havoning nisbiy namligi 40 - 45 % bo'lganda meva hosil qila boshladi va shu oy oxirigacha davom qiladi.

Bu paytda tegishli tarzda umumiy harorat 450,7°C va foydali harorat yig'indisi 195,5°C darajaga etdi. Gullash 25 mayda (UH 665,2°C va FHY 343,1°C daraja), urug'ning pishib etilishi iyun oxirida (UH 788,5°C va FHY 439,7°C daraja), vegetatsiya yakuni oktyabr oyida (UH 6302,5°C va FHY 5498,2°C daraja) aniqlandi (6-jadval).

***Indigofera tinctoria* ning o' sish va rivojlanishiga umumiy va foydali havo haroratning ta'siri**

O'sish va rivojlanish bosqichlari	2020-2022 yillar	
	Umumiy harorat yig'indisi °C	Foydali haroratlar yig'indisi
Vegetasiyasining boshlanishi	450,7±0,9	195±0,8
G'unchalash	542,4±0,8	265,4±0,6
Gullash	665,2±0,6	343,1±0,5
Dukkaklarning etilishi	788,5±0,4	439,7±0,3
Vegetasiyasining yakuni	6302,5±0,6	5498,2±0,8

Bundan tashqari uihbu bo'limda o'simlikning ning o'sish va rivojlanish jadalligi o'rganilgan (7-jadval).


***Indigofera tinctoria* asosiy poyasining balandligi**

Yillar	O'simlikning bo'yi, sm.					
	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr
2019	6,4±1,05	8,4±0,9	25,5±1,3	50,8±1,8	80,5±1,4	110,6±1,7
2020	5,6±1,2	10,3±1,1	27,03±0,9	56,4±1,3	85,5±1,01	116,7±1,5
2021	7,9±0,8	15,0±1,06	35,5±1,2	65,6±1,02	95,3±1,3	125,2±2,4
2022	5,7±0,9	10,2±1,2	25,7±0,9	48,5±0,7	82,9±1,06	105,5±2,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'simlik bo'yining jadal suratlarda o'sishi 2021 yilda yuqori bo'lganligi kuzatildi. O'simlik iyul oyidan sentabr oyigacha jadal suratlarda o'sib rivojlanadi, shu bilan birgalikda yon novdalarining hosil bo'lishi ham davom etadi. Avgust oyida yon novdalarning uzunligi asosiy poya bilan teng bo'lib 8 -10 tani tashkil etdi.

Avgust oyining oxirlarida havo harorati 34 + 35 °C, havoning nisbiy namligi 40-45 % bo'lganda o'simlik gullari changlanib, dukkak tugish jarayoni jadallashadi. Keyinchalik, o'simlikning o'sishi sekinlashadi va rivojlanish davrining oxirigacha davom etadi. O'simlik bo'yining balandligi rivojlanishning davrlari oxiriga borib, o'rtacha 100 -125 sm. gacha etadi. Bu o'simlikning turkumlari bir yillik butasimon bo'lganligi sababli, asosiy poyaning pastki qismida yon novdalar o'sib rivojlanadi. O'simlikning o'sishi va rivojlanishida havo harorati va havoning nisbiy namligi asosiy omil hisoblanadi.

2020 yilda oktyabr oyining oxirida havo haroratining keskin pasayishi natijasida vegetatsiya davrini tugatishi hisobiga 2019-2021 yillardan 10 kun ilgari o'sishdan to'xtadi. O'simlikning vegetatsiya davri tabiiy tarqalgan hududlarda 6 oyni tashkil etishi sababli Toshkent sharoitida indigoferaning o'sishdan to'xtashi oktyabr oyining oxiriga to'g'ri keladi, bunga asosiy sabab havo haroratining pasayishini keltirish mumkin (5 rasm).




5-rasm. *Indigofera tinctoria* ning fenospektri (2020-2022 yillar)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, introduksiya sharoitida barcha davrlarni bosib o'tgali o'simlikni ekib-ko'paytirishga cheklov qo'ymaydi, balki ildizpoyalarning jadal rivojlanishi va yuqori hosil olinishiga olib keladi. *Indigofera tinctoria* L.ning vegetatsiya davomiyligi iqlim sharoitlariga bog'liqligi kuzatildi. O'simlikning vegetatsiya davomiyligi iqlim sharoitiga bog'liq bo'lib 155-190 kun davom qildi.


Dissertasiyaning to'rtinchi bobida "*Indigofera tinctoria* L. ning gullash dinamikasi va urug' mahsuldorligi abiotik omillarning ta'siri" qayd etilgan.

Gullashning boshlanishi 2020 yil iyulda ertalab soat 8:00 da 4 ta guli ochildi. Shu paytda havo harorati +26°C va havoning nisbiy namligi 37 % edi; soat 10:00 da esa 2 ta yangi gul bilan jami 6 ta gul ochildi, havo harorati oshgani, lekin nisbiy namlikning kamaygani kuzatildi. Soat 12:00 holatida havo harorati + 31°C va nisbiy namlik 16 % gacha tushganida ochilgan gullar soni jami 10 ta bo'ldi. Gullarning kun davomida eng ko'p ochilish holati soat 14:00 da havo harorati + 36°C da sezilarli darajada (9 ta) oshgani qayd etildi. Harorat 29°C ga tushgan bo'lishiga qaramasdan, havo harorati issiqligicha qolganda (soat 16:00 holatiga ko'ra) 9 ta yangi gul ochildi aniqlandi. Soat 18:00 da ochilgan gul 1 dona bo'lib, jami kun davomida ochilgan gullar soni 35 tani tashkil etdi (6-rasm).




6 - rasm. *Indigofera tinctoria* ning gullashining boshlanishi (08.07.2020 yil)

O‘simlikning yoppasiga gullashi 2020 yil 17 iyulga to‘g‘ri keldi. Ertalab soat 8:00 da 10 gul ochildi, bu vaqtda havo harorati +26°C, havoning nisbiy namligi 35 % edi. Soat 10:00 da 16 ta gul ochilgani, havoning harorati esa oshib, +30°C, nisbiy namlik esa 17 % ekanligi qayd etildi. Gullarning eng ko‘p ochilish vaqti soat 12:00 da kuzatildi, bu vaqtda ochilgan gullar soni 25 ta bo‘ldi; soat 14:00 da esa 28 ta gul ochildi. Bu paytda havo harorati 36 + 39°C, nisbiy namlik 30 % dan 20 % gacha tushgani qayd qilindi. Shu vaqtda yana ochilmoqchi bo‘lgan gullar soni 15 ta edi, lekin soat 16:00 da shulardan 12 tasi ochildi. Soat 18:00 da gullar ochilmadi. Kun davomida jami ochilgan gullar soni 91 tani tashkil etdi (7-rasm).




7-rasm. *Indigofera tinctoria* ning yoppasiga gullashi (17.07.2020)

Yakuniy gullash dinamikasi 25 iyulda kuzatilganda quyidagi natijalar qayd etildi. Ertalab soat 8:00 da 1 ta yangi gul ochilganligi kuzatildi. Bu paytda havoning nisbiy namligi 30 % va havo harorati + 26°C ekanligi qayd etildi. Soat 10:00 da 3 ta yangi gul ochildi, shuningdek, havo harorati ko'tarilishi va havoning nisbiy namligi pasayishi qayd etildi. Kun davomida soat 12:00 va 14:00 da bir xil natija olindi: 4 ta yangi gul ochildi. Soat 16:00 da 1 ta, soat 18:00 da esa 2 ta gul ochildi. Bu kunda gullar ochilish ko'rsatkichi sezilarli darajada kamaygani qayd etildi. Kun davomida jami 15 ta yangi gul ochildi (8-rasm).



8-rasm. *Indigofera tinctoria* ning yakuniy gullash dinamikasi (25.07.2020 yil)

Mavsumiy gullash dinamikasi o'simlik ob-havo sharoitiga bog'liq holda iyul boshlarida (07/07) gullashni boshladi va iyul oxirlarigacha davom etdi (25/07). Asosiy novdadagi pastki gullar g'unchalagandan so'ng 3 kundan keyin ochila boshladi. Bir tup o'simlikda 5-7 ta katta novdalar mavjud bo'lib, har bir novdada 80-120 ta gullar ochiladi (9-rasm).



9 - rasm. *Indigofera tinctoria* ning mavsumiy gullash dinamikasi (07.07 -25.07 2020 yil)

O‘simlikni mavsumiy gullash jarayoni ob –havo sharoitiga bog‘liq bo‘lib gullarning eng ko‘p ochilishi iyul oyida havoning o‘rtacha harorati 30 + 35°C, haboning nisbiy namligi 38 - 40 % ni soat 8- 12 oralig‘ida kuzatilib, gullash jarayoni 19 - 20 kun davom etishi qayd etildi.

Indigofera tinctoria ning urug‘ mahsuldorligi 2021 yilda bitta to‘pgulida ochilgan gullar soni 214 ta, PUM $169 \pm 4,3$ ni, HUM $106 \pm 3,79$ ni tashkil etib, mahsuldorlik koeffitsenti 62,7 % ni, 2022 yili esa mahsuldorlik koeffitsenti 63,1 % ni tashkil etdi.

Dissertasiyaning beshinchi bobi “**Indigofera tinctoria** ning fitokimyoviy tarkibi” ga bag‘ishlanib, o‘simlikning fitokimyoviy va biologik faol moddalarni aniqlash hamda bo‘yoq pigmentini ajratish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. o‘simligining er ustki qismidan olingan efir moyining kimyoviy tarkibida umumiy hisobda 53 ta komponent aniqlangan bo‘lib, shulardan 33 tasi identifikatsiya qilindi. Efir moylarining miqdori 0,07 - 0,18 % ni tashkil etdi. Efir moyi tarkibida palmitin (1,16%) va linolen (1,02%) yog‘ kislotalari ham aniqlandi.

Ushbu bobda *indigofera tinctoria* kukunidan ikkita bo‘yoq olinadi – matolar uchun juda mustaxkam to‘q-ko‘k bo‘yoq indigo hamda sochlar uchun bo‘yoq basma va bundan tashqari o‘simlik barglari turli teri kasalliklari, furunkullar, ekzemlarni, tiklanmaydigan shilinishlar va yaralarni, tomoq, milklarning yallig‘lanishi, tonzillitda, rak kasalliklari, leykemiya, jigar kasalliklarini davolashda va kosmetologiyada ishlatiladi. O‘simlikning 50 kg quruq barg va poyasidan 125 gr bo‘yoq moddasi olindi.

Dissertasiyaning oltinchi bobi “**O‘simlikni etishtirish yo‘llari va introduksion baholash**” deb nomlanib, ushbu bobda o‘simlikni etishtirish texnologik xaritasi ishlab chiqilgan, urug‘larni turli usullar yordamida unuvchanlik ko‘rsatkichlari aniqlangan, shuningdek introduksion baholash tahlil etilgan.

O‘simlikni yetishtirishning texnologik xaritasi dissertasiyada batafsil berilgan.

Agrotexnika qoidalariga amal qilgan holda 1 gektar *Indigofera tinctoria* plantasiyasidan birinchi yili 1,5-2,0 t keyingi yillarda esa 3-3,5 t. gacha xom - ashyo hamda 400-600 kg gacha urug‘ olish mumkin.

Tadqiqotlarimizda *Indigofera tinctoria* ning urug‘ unuvchanligi oddiy, kimyoviy va fizik usullarda o‘rganildi.

Oddiy saralash usulida urug‘larning o‘lchamiga (katta yoki kichikligiga) qarab saralab olinib, unuvchanligi laboratoriya sharoitida (+25°C) aniqlandi.

Shu bilan birga, UBN (ultrabinafsha nurlar) va EMI (elektromagnit impuls) bilan ta‘sir vaqti (ekspozitsiya)ni uzaytirish, shuningdek, ularning birgalikdagi ta‘siri indigofera urug‘lari unuvchanligining pasayishiga olib kelishi aniqlandi (8 - jadval).

8 - jadval

Turli muddatlarda saqlangan *Indigoferatinctoria* urug‘larining unuvchaligiga ekishdan oldin ishlov berishning ta‘siri, %

Tajriba variantlari	Bir yil	Besh yil
Nazorat	$96,8 \pm 3,1$	$83,5 \pm 2,4$
UBN 15 daqiqa	$97,1 \pm 3,2$	$86,2 \pm 2,5$

UBN 20 daqiqa	97,8 ± 3,3	87,0 ± 2,4
UBN 25 daqiqa	96,2 ± 3,0	86,1 ± 2,3
EMI 15 daqiqa	96,3 ± 2,9	86,5 ± 2,3
EMI 20 daqiqa	96,9 ± 3,0	86,9 ± 2,5
EMI 25 daqiqa	96,5 ± 3,1	85,3 ± 2,3
UBN + EMI 15 daqiqa	97,2 ± 3,2	90,2 ± 2,6
UBN + EMI 20 daqiqa	97,0 ± 3,0	92,8 ± 2,7
UBN + EMI 25 daqiqa	96,9 ± 3,1	88,6 ± 2,5

Tadqiqotimiz natijasida indigoferaning yuqori unuvchanlikka ega urug'lariga ultrabinafsha nurlar va past chastotali elektromagnit impulslari bilan ishlov berilganida sezilarda o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Ma'lumki, urug'larga ekishdan oldin turli fizik usullar bilan ta'sir etish, biologik faol moddalarning eritmalarida ekishdan oldin ivitib qo'yish va boshqa usullar orqali urug'larning unuvchanligini, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini hamda ularning hosildorligini oshirish mumkin. Ekishdan oldin amalga oshiriladigan ko'plab usullardan eng istiqbollisi sifatida elektromagnit maydonlar va ul'tra binafsha nurlarni qayd etish mumkin

B.E.To'xtayevning (2009) sho'r yerlarda o'stirilgan dorivor o'simliklarni introduksion baholash bo'yicha 100 ballik shakala ishlab chiqilgan. Unga ko'ra o'simlik sho'rlanishga chidamliligi 20, namlikka bo'lgan talabi 15, yuqori haroratga bo'lgan holati 15, past haroratga bo'lgan holati 15, tabiiy holda ko'payishi 5 ballni, jami 70 ballni tashkil etdi. I.V.Belolipovning (1976) 13 ballik introduksion baholash shkalasi bo'yicha suvga bo'lgan talabi 2 ballni, raqobatbardoshligi 3 ballni, intrduksiya muvaffaqiyati esa 3 ballni, jami 8 ballni tashkil etdi va yuqori isstiqbolli o'simlik ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda o'simlik istiqbolli hisoblanib, o'sish va rivojlanishning jadal kechishi, ontogenezining barcha davr va bosqichlarini o'tishi, yuqori mahsuldorligi, kasallik va zararkunandaliklarga chidamliligi respublikamizning kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan tuproqlarida ekish tavsiya etiladi.

XULOSALAR

“Introduksiya sharoitida *Indigofera tinctoria* L.ning biyokologik xususiyatlari va samarali foydalanish yo'llari” mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Laboratoriya sharoitida urug'larning unuvchanligi uchun qulay harorat +25°C bo'lib 1 yil saqlangan urug'larda yuqori ko'rsatkichni 93% ni tashkil etdi. Haroratning tushishi yoki ko'tarilishi urug'larning unuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urug'larning unuvchanligi va o'sish energiyasi urug'lar massasining ortishi bilan ko'payib borishi aniqlandi. Dala sharoitida urug'larning unib chiqish ko'rsatkishi 30-40 % oralig'ida bo'lib, urug'lar unuvchanligini besh yillgacha yoqotmaydi.

2. *Indigofera tinctoria* ning ontogenez davrlari va bosqichlarining muddatlari muhit sharoitlariga bevosita bog'liq bulib, maysa bosqichi 11-13 kun, yuvini

bosqichi 15-20 kun, immatur bosqichi 20-25 kunni voyaga etgan verginil bosqichi 15-20 kunni, generativ davri esa 65-80 kunni tashkil etishi aniqlandi.

3. Mavsum davomida rivojlanish maromiga ko'ra, bahorgi – yozgi - kuzgi fenoritmga mansub bo'lib, vegetasiya davomiyligi ekish muddatiga qarab 155-190 kunni, hamda o'sish va rivojlanishi uchun foydali haroratlar yig'indisi 5498,2 °C, umumiy haroratlar yig'indisi 6302,5 °C,ni tashkil etdi.

4. O'simlikni mavsumiy gullash jarayoni ob - havo sharoitiga bog'liq bo'lib gullarning eng ko'p ochilishi iyul oyida havoning o'rtacha harorati 30 - 35°C, haboning nisbiy namligi 38-40 % ni, soat 8- 12 oralig'ida kuzatilib, gullash jarayoni 30 -40 kun davom etishi qayd etildi.

5. O'simligining yer ustki qismidan olingan efir moyining kimyoviy tarkibida umumiy hisobda 53 ta komponent aniqlangan bo'lib, shulardan 33 tasi identifikatsiya qilindi. Efir moylarining miqdori 0,07 - 0,18 % ni tashkil etdi. Efir moyi tarkibida palmitin (1,16%) va linolen (1,02 %) yog' kislotalari ham aniqlandi. Urug'larida 7 ta yog' kislotasi aniqlanib, ular yog'ning 94,3 % ni tashkil etdi.

6. O'simlikning 50 kg quruq barg va poyasidan 125 gr bo'yoq moddasi olindi. Quruq yer ustki hosildorligi gektariga birinchi yili 1,5-2,0 t keyingi yillarda esa 3-3,5 t. gacha va 400-600 kg gacha urug' olish mumkinligi aniqlandi.

7. Respublikamiz sharoitida *Indigofera tinctoria* ni etishtirish bo'yicha texnologik xarita ishlab chiqildi. Ko'paytirish usullari, etishtirish agrotexnologiyasi va iqtisodiy samaradorligi aniqlandi.

8. Introduksion baholash natijasiga ko'ra o'simlikni sho'r erlarda ko'paytirish bo'yicha 100 ballik shkalada 70 ballni, 13 ballik introduksion baholash shkalasi bo'yicha 8 ballni tashkil etib, bu esa keng maqyosda kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan tuproqlarida ko'paytirish imkonini beradi.

9. Mazkur turning bioekologik xususiyatlari - jadal o'sib rivojlanishi, ontogenezning barcha bosqishlarini o'tishi, yuqori mahsuldorligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi respublikamizning barcha viloyatlarida, o'rmon tassarufiga dorivor o'simliklarini etishtirish xo'jaliklariga ekib ko'paytirish tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/27.02.2020. В.01.15 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ТУРАБОЕВА ГУЛХАЁ НОРМУМИН КИЗИ

**БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА *INDIGOFERA TINCTORIA* L. В
УСЛОВИЯХ ИНТРОДУКЦИИ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

03.00.10 – Экология

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/B310

Диссертационная работа выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (<http://www.nuu.uz>) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (<http://www.ziyounet.uz>).

Научный руководитель: **Маткаримова Аноржон Абдукаримовна**
кандидат сельскохозяйственных наук, доцент

Официальные оппоненты: **Рахимова Ташханим**
доктор биологических наук, профессор

Юлдашиева Сахиба Шамурзаевна
доктор философии по биологическим наукам,
доцент

Ведущая организация: **Гулистанский государственный университет**

Защита диссертации состоится «28» октября 2025 года в «10⁰⁰» часов на заседании разового научного совета на основе Научного совета DSc.03/27.02.2020.B.01.15 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, д. 4. Корпус факультета Биологии и экологии Национального университета Узбекистана, 2-й этаж, 203-й кабинет. Тел.: (+99871-227-15-44).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под №158) (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, Студенческий городок, ул. Университетская, д.4. Тел.: +99871246-67-72.

Автореферат диссертации разослан «03» октября 2025 года
(реестр протокола рассылки № «33» от «03» октября 2025 года.



Т.У.Рахимова
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

Р.Х.Аллабердиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
к.б.н., доцент

З.А.Жаббаров
Председатель Научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире интерес к экономически значимым растениям возрастает с каждым годом. Это вызывает необходимость в расширении видового разнообразия лекарственных, пищевых, ароматических и красильных культур, а также в создании на их основе новых продуктов. В связи с этим отбор широкого спектра перспективных растений, обеспечение их сырьем, исследование их биоэкологических характеристик и пригодности к различным почвенно-климатическим условиям, а также разработка эффективных методов возделывания и размножения имеют большое научное и практическое значение.

В мире осуществляются научные исследования, направленные на изучение перспективных растений, обладающих лекарственными, пищевыми, ароматическими и красильными свойствами, а также на внедрение их в производственные процессы и усовершенствование методов селекции. В связи с этим особое внимание уделяется изучению ценных видов растений и их рациональному использованию, технологии получения природных красителей из красильного растения индигофера красильная, биоэкологическим свойствам растения индигофера красильная (*Indigofera tinctoria* L.), разработке технологии возделывания с учетом эколого-региональных и климатических условий.

В нашей республике, после обретения независимости, особое внимание уделяется изучению хозяйственно важных растений, их интеграции в производственные процессы, а также методам возделывания и размножения в различных регионах. В Стратегии развития Нового Узбекистана¹ обозначены такие задачи, как «...воспроизводство растений в пустынных зонах, защита орошаемых земель от эрозии и мелиоративных сооружений от песчаных заносов, повышение и охрана плодородия почв». В свете этих задач, среди наиболее перспективных красильных культур выделяется индигофера красильная (*Indigofera tinctoria* L.), которая в настоящее время возделывается примерно в тридцати странах мира. Исследование биоэкологических характеристик этого растения в различных регионах и культивирование высококачественного сырья имеют значительное научное и практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени содействует реализации целей, установленных в Законе Республики Узбекистан от 21 сентября 2016 года № 409 «Об охране и использовании растительного мира», Указе Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года УП-5853 «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» и Указе Президента Республики Узбекистан от 29 января 2022 года УП-60 «О Стратегии развития нового

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № 60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

Узбекистана на 2022-2026 годы», а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики – V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и защита окружающей среды».

